

XURSHID DO‘STMUHAMMAD IJODIDA “NAFS” TALQINI VA UNGA QARSHI
KURASH (“BOZOR” ROMANI VA “JAJMAN” HIKOYASI ASOSIDA)

Mirxoliyev Hayotjon Niyatqobul o‘g‘li

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasini o‘qituvchisi.

mirxoliyev_hayotjon@katdpi.uz

Jumaboyeva Aziza Davir qizi

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20213604>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xurshid Do‘stmuhammad qalamiga mansub “Bozor” romani hamda “Jajman” hikoyasidagi uzviy bog‘liqlik tahlil qilinadi. Asarda o‘zbek adabiyotida mutlaqo yangicha talqinda yoritilgan “Nafs” tushunchasi badiiy vositalar orqali ochib beriladi.

Tadqiqot davomida obrazlar tizimi, ramziy qatlamlar va muallif uslubining o‘ziga xos jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: “Bozor” romani, nafs, ramziy ismlar, falsafiy qarashlar, kutubxona, ilm, nafs bilan kurash.

Abstract. This article analyzes the inherent connection between the novel "Bozor" (The Market) and the short story "Jajman" by the prominent writer Khurshid Dostmuhammad. The concept of "Nafs" (the ego/desires), presented through a completely new interpretation in Uzbek literature, is revealed using various artistic devices. The study highlights the system of characters, symbolic layers, and the unique characteristics of the author's literary style.

Keywords: “Bozor” novel, nafs (ego), symbolic names, philosophical views, library, science (knowledge), struggle against the ego.

Аннотация. В данной статье анализируется органическая связь между романом «Базар» и рассказом «Джажман», принадлежащими перу Хуршида Достмухаммада. Понятие «Нафс» (эго/страсти), представленное в совершенно новой для узбекской литературы интерпретации, раскрывается с помощью художественных средств. В ходе исследования освещаются система образов, символические пласты и своеобразные черты авторского стиля.

Ключевые слова: роман «Базар», нафс (эго), символические имена, философские взгляды, библиотека, наука (знание), борьба с нафсом.

KIRISH. Nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki dunyo adabiyotining buguni va o‘tmishiga oid davrlarda ham nafsni yengish va bu yo‘l orqali komillikka erishish mavzusi aks ettirilgan asarlar yuqori o‘rinda turgan. Ana shunday asarlardan yorqin namunalar: “Bozor” romani va “Jajman” hikoyasi bo‘lib, bular Xurshid Do‘stmuhammad qalamiga mansub muhim adabiy meros hisoblanadi. Ushbu adabiy yodgorliklar o‘zining keng qamrovi, chuqur falsafiy va tasavvuf ilmiga doir qarashlari bilan kitobxonni mushohada etishga undaydi va bevosita tafakkur qilishga majbur etadi.

METADOLOGIYA. Ushbu tadqiqotning metodologik asosini badiiy matnni tizimli tahlil qilish, qiyosiy-tipologik va psixologik tahlil tamoyillari tashkil etadi. Adibning **“Bozor” romani** va **“Jajman” hikoyasidagi** nafs tushunchasini ochib berishda yuqoridagi tahlil nazariyalaridan foydalanildi. Shuningdek, Tadqiqot jarayonida adabiyotshunos olimlarning modernistik asarlar tahliliga oid nazariy qarashlariga tayanildi. Xususan, asardagi “nafs” va “bozor” tushunchalarining ijtimoiy-axloqiy mohiyatini ochishda germenevtik tahlildan ham foydalanildi. Bu esa asar qatlamlaridagi yashirin ma’nolarni va muallifning badiiy niyatini chuqurroq anglash imkonini berdi.

NATIJALAR. Xurshid Do’stmuhammad ijodining eng sara namunalari hisoblangan **“Bozor” romani** bir necha qahramonlar taqdirini qamrab oladi. **“Jajman” hikoyasi** esa nisbatan kamroq personajlar taqdirini o’zida aks ettirsa-da, mohiyatan roman bilan teng mavzu ko’lamini yoritadi. Ushbu ikkala asarni bog’lab turgan uzviylik esa, mutlaqo yangicha talqinda yozilgan **“Nafs”** va u bilan kurashish choralari mavzusi hisoblanadi. Har ikkala asar ham yozuvchining **“shoh asarlari”** bo’lib, o’zbek modernezimining boyishiga ulkan hissa qo’shdi.

Yozuvchi qo’l urgan ushbu mavzu hozirgi kungacha ham nafaqat o’zbek adabiyoti, balki dunyo adabiyotida ham dolzarb mavzulardan biri bo’lib kelgan. Xususan, Ahmad Yassaviy **“Hikmatlar”**, Onore de Balzak **“Sag’ri teri tilsimi”**, Fotih Duman **“Men.Bas qil, ey nafs!”** va shu kabi ko’plab yozuvchilar ushbu mavzuni turli talqinda yoritib kelishgan. Deylik tasavvufiy, falsafiy, realizm, romantizm va boshqa yo’nalishlar bo’lib, Xurshid Do’stmuhammad esa tubdan boshqa ya’ni modernizm adabiyotida ushbu mavzuni ifodaladi. Turk adabiyotining o’ziga xos namoyondasi, tasavvufiy asarlari bilan ko’plab kitobxonlar auditoriyasiga ega Fotih Duman ham nafsni tarbiyalash va shu orqali inson o’z-o’zida komillikni shakllantirish masalasini ilgari suruvchi asarlar muallifidir ...Ichimda bir ovoz bor. Dunyoga kelibmanki, o’zimmanki deb o’ylaganim o’sha ovoz... Hech to’xtamagan, har doim shivirlab turgan ovoz... Kimdir uni **“ichki ovoz”** desa, yana kimdir uni **“menlik”** deb ataydi, ammo eskilar buni **“nafsnings ovozi”**, **“nafs”** deb atashadi. Nafs – zahardir, nafs – dushmandir. U hech qachon tin olmaydi... [4:38]. Fransuz adabiyotining yirik vakili Onore de Balzak **“Sag’ri teri tilsimi”** asarida ham haddan tashqari istak(nafs)ka mayl qo’yishning yomon oqibatlarini Rafael obrazi orqali aks ettirgan. Shuningdek, Yassaviya tariqati asoschisi Ahmad Yassaviy ijodining asosiy mavzu ko’lami ham nafsni yengish masalalariga qaratilgan. Yassaviy har vaqt nafs haqida gapirganida unga insonning kamolotiga xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatid baho beradi. Nafsga **“shum”** sifati beriladi.

Shuningdek, shoir **“nafsi bad”**, **“nafs yo’li”**, **“nafs ilgi”** singari istioralarni ham qo’llaydi.

Adib to’g’ridan to’g’ri nafsga qarshi kurashni, uning yo’rig’iga yurmaslikni targ’ib qiladi.

Nafsnings domiga ilinish insonni qanchalik yer bilan yakson qilishini juda yorqin ifodalarda ko’rsatib beradi. Boshqa bir she’rida shunga urg’u berib yozadi:

Nafs yo’lig’a kirgan kishi rasvo bo’lur,

Yo’ldan ozib, toyib, to’zib gumroh bo’lur.

Yotsa, qo’psa shayton bilan hamroh bo’lur,

Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor.[5: 55]

Xurshid Do’stmuhammad ham ushbu yo’lni yangicha yo’nalishda davom ettirdi hamda inson ichki dunyosidagi eng chirkin illat bo’lgan nafsni mutlaqo o’zgacha talqinda adabiyotga olib

kirdi. Xususan yozuvchi har ikkala asarida ham bozorda, timda paydo bo'lgan nafsni "nojins" hamda "jajman" tushunchalari bilan atadi. Sababi insonlar nafs haqiqatda borligini biladi, ammo uning qanday ko'rinishda ekanligini mutlaqo bilishmaydi. Shuning uchun yozuvchi nafsni shunday holatda tasvirlaydi. Shuningdek asarda insonlar o'zlari bilmagan holda nafsni rag'batlantirishi va u bilan kurash, uni yengish chorasiga ham yechim ko'rsatadi.

MUHOKAMA. 1. Asarlarning konseptual mohiyati: bozorning ramziy talqini.

Xurshid Do'stmuhammad nafs mavzusi yoritilgan ushbu asariga "Nafs" deb emas, "Bozor" nomi tanlanishining ham chuqur falsafiy mohiyati mavjud. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Nabiy sollallohu alayhi vasallam bozor haqida aytadilarki: "Allohga eng mahbub yurtlar masjidlardir. Allohning eng ko'p g'azabiga uchragan yurtlar bozorlardir", - dedilar". Ushbu hadisi sharifdagi masjidlar va bozorlar haqidagi vasflar ularda sodir bo'ladigan ishlar yuzasidan aytilgan. Odatda masjidlarda Allohga ibodat qilinadi, tilovatu zikr, va'z-nasihatlari bo'ladi, ilm o'rganiladi, musulmonlarning axloq-odobi, tarbiyasi, ruhiy-ma'naviy holatini yaxshilash choralari ko'riladi. Umuman, ikki dunyo foydasiga oid ishlar bo'ladi. Bozorlar Alloh taolo eng yomon ko'rgan joylardan bo'lishi odatda u yerda yolg'on, aldanchilik, birovning molini haromdan yeyish kabi hodisalar sodir bo'lganidandir.

Islomda savdo-sotiq ishlarida halol bo'lishga qattiq targ'ib qilinadi. Aldanchilik, birovning molini haromdan yeyish, savdo-sotiqda qalloblik qilish qattiq qoralanadi. Hadisda bozorlar Alloh taolo eng yomon ko'rgan joy tariqasida sanalishining sababi ham shunda. Bozor bozor bo'lgani uchun emas, unda harom-xarish, noshar'iy ishlar ko'pligi uchun shunday sifatga ega bo'lgan. Shuning uchun musulmonlar bozorda doimo ehtiyot bo'lishlari kerak. Bozorga kirganda ham Allohdan panoh so'rab kirish, yurganda ham panoh so'rab yurish lozim. Yuqorida aytib o'tilgan ma'nolar yuzasidan har bir musulmon inson bozor ishlari, savdo-sotiqqa oid islomiy ta'limotlarni o'rganib olish zarurdir va yaxshilikdir [3: 89]. Aynan shuning uchun ham asar voqealari bozor fenomeni atrofida gavdalanirildi. "Bozor" romanida "Dunyoning boshi gulzor odoshi mozor, Gulzor-u mozor o'rtasi bozor" epigrafi qo'llanadi. Ushbu epigraf ham asarning badiiy qiymatini oshirishga xizmat qiladi. Har ikkala asarda ham asar voqealari bozorda yuz beradi.

2. Asarlarning uzviy bog'liqligi: nafs tushunchasi misolida. Adib ijodida asosiy voqealar bozor prototipi atrofida yuz beradi va bevosita u bilan chambarchas bog'liqdir. Deylik, necha kunlab qabrga qo'yilmay sarson qilingan o'lik, yerga cho'kib borayotgan bozor, keraksiz narsalarga almashilgan eski xotiralar singari unutilayotgan qiroatxona, uvol bo'layotgan ne'matlar, tug'ilmay nobud bo'layotgan go'daklar, qurilmay buzilayotgan oilalar va boshqalar.

Yozuvchi birgina bozor prototipi atrofida bir qancha bashariy muammolarni ochib berishga harakat qiladi. Hech e'tibor berganmisiz insonlarni shakl-u shamoyili, dunyoqarashi, ovozi hatto barmoq izlari biri ikkinchisidan tafovutlidir, garchand egizak bo'lishsa ham. Ammo, insonlarni bir-biriga shu qadar o'xshatadigan, og'iz-burun o'pishtirib, joyi kelsa gij-gijlatadigan narsa nafsdur. Bularning hammasi nima uchun yozuvchi ta'biri bilan aytganda hozirgi hayot xudosiga aylanib ulgurgan pul uchun. Eh odamzod, shu bevafo uchun nimalarga ham tayyorsiz-a? Bozorda hammaning birgina ilinji shu. Kimdir bir molni besh so'm qimmat sotish ilinjida, yana kimdir besh so'm arzonroq olish ilinjida necha bora tuslanib, necha bora o'zgaraydi deysiz?

Odamlar o‘zlaricha kelgan baloni bozorga yo‘yib uni o‘zgartirmoqchi bo‘lishadi, zero odamlarning nazdida bozor yomon tarafga o‘zgarib bormoqda. Yo‘q, yo‘q aslida yomon tarafga o‘zgarayotgan bu odamlar, aynan ular. Ammo buni hech kim anglamaydi, anglasha-da qabul qilishmaydi. Ular pulni sevishadi, nafs aynan shundan oqilona foydalanib odamlarni o‘z izdihomiga o‘zi istaganicha o‘ynatadi. “Nafs” va u bilan bog‘liq holatlar inson hayotiga shu qadar chuqur singmoqdaki, go‘yoki oddiy holat. Bu illatning jamiyat hayotiga singishi “Insof” singari tuyg‘ular begonalashib borayotganiga olib kelmoqda. Har ikkala asarida ham ijodkor ayni shu tushunchalarga urg‘u beradi. Shuningdek, insonlar ba‘zan o‘zlari anglamagan holda nafsni rag‘batlantirishiga ishora qiladi.

3. Asarlarda keltirilgan ramziy ismlar: Fozilbek, Qadriya. fozillik va shuur mezon: Fazliddin obrazida individual tafakkur talqini.

Adabiyot — inson ruhini kashf etuvchi, jamiyatning axloqiy qiyofasini belgilovchi oliy minbardir. Adib o‘zining ushbu asari markaziga Fozilbek obrazini qo‘yar ekan, u orqali shunchaki bir qahramon qismini emas, balki komil shaxsga xos bo‘lgan fozillik konsepsiyasini ilgari suradi.

Fozillik — bu shunchaki tashqi odob yoki yaxshi xulq emas. Bu tushuncha zamirida ilm, hikmat va ma‘naviy uyg‘unlik yotadi. Fozilbek siymosida fozillik — har bir harakatni yuksak axloqiy mezonlarga solishtirish, har bir qadamni ongli ravishda tashlashda namoyon bo‘ladi. U ko‘pchilik singari “yashash oqimi” bo‘ylab passiv suzmaydi, aksincha, voqelikni o‘z idrokining shaffof elagidan o‘tkazadi. Muallif qahramonning uylanish masalasidagi qarashlari orqali uning mas‘uliyat hissining nechog‘lik baland ekanligini ko‘rsatib beradi. Oila a‘zolari unga “Munosibxon” izlashar ekan, Fozilbekning irodasi odatiy egoizmdan uzoqligi bilan ajralib turadi.

U faqat o‘zi uchun munosib juft izlamaydi, balki “Men u qizga munosibmanmi?” degan so‘rovni o‘zining vijdon mahkamasiga qo‘yadi. Bu — fozillikning eng oliy ko‘rinishi, ya‘ni shaxsning o‘ziga nisbatan talabchanligidir. Asarda Fozilbekning o‘z oilasi va ajdodlariga bo‘lgan munosabati ham diqqatga sazovordir. Odatda, inson o‘z yaqinlariga nisbatan subyektiv va yon bosuvchi xulosalar chiqarishga moyil bo‘ladi. Biroq Fozilbek qarindoshlik rishtalarini haqiqat va adolat mezonidan ustun qo‘ymaydi. Uning o‘z ajdodlari va oila a‘zolariga bergan real bahosi uning shuuriy mustaqilligidan dalolat beradi. Bu o‘rinda muallif “Bu mening qonimdan, demak u doim haq” degan qotib qolgan aqidani inkor etadi va haqiqatning qarindoshlikdan ulug‘ ekanligini ta’kidlaydi. Qahramonning xayoliy “Shuur” shirkatida faoliyat yuritishi asarning eng markaziy metaforik g‘oyasidir. Shuur — bu shunchaki ong emas, balki voqelikni chuqur mantiq, qalb ko‘zi va mas‘uliyat bilan anglash san‘atidir. Adib ushbu “shirkat” timsolida har bir insonni o‘z ichki dunyosida tahlil va mushohada laboratoriyasini yaratishga chorlaydi. Fozilbek obrazining hayotiyliigi shundaki, u — har bir ishni tafakkur bilan rejalashtiruvchi, har bir so‘zni ma‘no bilan so‘zlovchi “shuur sohibi”dir. Yozuvchining asosiy muddaosi ham aynan shunda: har bir shaxsni harakatdan oldin mushohada qilishga, voqelikka ko‘r-ko‘rona emas, balki ongli ravishda yondashishga da‘vat etish. Fozilbek — zamonamizning ma‘naviy tanazzuliga qarshi qo‘yilgan mantiqiy qalqondir. Uning fozilligi va teran shuuri kitobxonni o‘zligiga nazar solishga, hayotiy prinsiplarini qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi.

MA‘NAVIY EHTIYOJ VA QADRIYATLAR JILOSI: QADRIYA OBRAZI TALQINI. Asarning g‘oyaviy yo‘nalishida Qadriya obrazi fozillikning ayollarga xos nafis timsoli

sifatida namoyon bo‘ladi. Agar Fozilbek shaxsiy tafakkur va shuuriy uyg‘oqlikni ifodalasa, Qadriya — jamiyatning ma’rifiy poydevori bo‘lmish kitobxonlik va hayo qadriyatlarini himoya qiluvchi qahramondir.

Moddiyat va ma’naviyat muvozanati. Adib Qadriyani qiroatxona xodimi sifatida tasvirlar ekan, uni bugungi kunning real manzaralariga qarama-qarshi qo‘yadi. Jamiyatning aksariyat qismi “qorin g‘ami” va moddiy manfaatlar ortidan quvib, ma’naviy ozuqadan uzoqlashgan bir davrda, Qadriyaning o‘z maoshi evaziga kitob sotib olishi — bu shunchaki qiziqish emas, balki ma’naviy jasoratdir. Uning bu harakati orqali yozuvchi insonning faqat biologik ehtiyojlardan iborat emasligini, balki uning ruhi ham “oziqlanishi” shartligini uqtiradi.

Ism va mohiyat uyg‘unligi. Qahramonning ismi uning zimmasidagi ijtimoiy-ma’naviy yukni ham belgilab bergan. Qadriya — qadriyatlarni asrovchi, qadr-qimmatni biluvchi demakdir. Uning kitob mutolaasiga bo‘lgan sadoqati jamiyatda qadri tushib borayotgan ilm va ma’rifatni qayta tiklashga bo‘lgan intilishni anglatadi. Muallif bu obraz orqali o‘quvchiga muhim bir xitobni yo‘llaydi: “Nimaniki qadrlasangiz, o‘sha narsa sizning insoniy darajangizni belgilaydi”.

Hayo — fozillikning ko‘rki. Qadriya siymosida o‘zbek ayoliga xos eng go‘zal fazilat — iboli va hayoli bo‘lish tushunchalari yuksak badiiy mahorat bilan chizilgan. Bugungi globallashuv va ochiqlik davrida hayo — bu zaiflik emas, balki shaxsning ichki madaniyati va mustahkam axloqiy o‘zagidir. Qadriyaning xulqidagi bu nazokat uning tashqi ko‘rinishida emas, balki uning munosabatlarida, so‘zlashuv madaniyatida va olamni idrok etishida ko‘rinadi.

Shuuriy tanlov. Qadriya ham xuddi Fozilbek kabi o‘z hayotini shuuriy tanlov asosiga quradi.

Uning kitob olami bilan hamnafasligi uni olomonning mayda va o‘tkinchi tashvishlaridan balandga ko‘taradi. U shunchaki ishchi emas, u — ma’rifat posbonidir. Yozuvchi bu obraz orqali har bir qiz va ayol nafaqat tashqi go‘zallikka, balki kitob mutolaasi orqali shakllanadigan boy ichki dunyo va yuksak odobga ega bo‘lishi lozimligini asar markaziga olib chiqadi. Fozilbek va Qadriya obrazlari bir-birini to‘ldiruvchi ma’naviy qutblardir. Biri erkak kishidagi qat’iy tafakkur va fozillikni ulug‘lasa, ikkinchisi ayol qalbining ilm va hayo bilan bezalgan go‘zalligini — haqiqiy Qadriyatni tarannum etadi.

XULOSA. Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, modernistik asarlar silsilasida “Bozor” va “Jajman” timsollari orqali aks ettirilgan Nafs muammosi shunchaki individual nuqson emas, balki jamiyatning ontologik inqirozi sifatida talqin etiladi. Asarlardagi “nojins” maxluq – nafsning jilovlanmagan ijtimoiy va ma’naviy xaosidir. Tadqiq etilgan asarlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu global inqirozdan chiqish yo‘li tashqi ma’muriy nazoratda emas, balki insonning ichki intizomida mujassamdir. Maqolada ilgari surilgan g‘oyalar asosida quyidagi konseptual xulosalarga kelindi:

1. Ma’rifiy rehabilitatsiya: Nafsni jilovlashning fundamental yechimi sifatida kitob mutolaasi va qiroatxonalar tarmog‘ini kengaytirish zaruriyati kelib chiqadi. Zero, tafakkur quvvati bo‘lmagan joyda nafsning “nojins” qiyofasi ijtimoiy nazoratni qo‘lga oladi.

2. Qadriyatlar himoyasi: Masjidlarni asrash va ma’naviy maskanlarga e’tibor — insonning o‘z o‘zagi (fitrati)ga qaytishini ta’minlovchi metafizik qalqondir.

3. Hirsning tadrijiy o‘limi: Moddiy dunyoga bo‘lgan patologik moyillik va hirs o‘ldirilmas ekan, har qanday tashqi islohot samarasiz qolaveradi. Nafsni yengish — bu ijtimoiy barqarorlikning birlamchi shartidir.

4. “Yagona qo‘riqchi” kontsepsiyasi: Bozordagi tartibsizliklarni bartaraf etish uchun yuzlab tashqi qo‘riqchi (politsiya yoki nazorat tizimi) emas, balki har bir shaxsning o‘z nafsigga qo‘yilgan atigi bitta — vijdon va iymon qo‘riqchisi kifoyadir. Binobarin, asarlar mualliflari tomonidan ilgari surilgan bu falsafiy yechim bugungi globallashuv davrida iste‘mol madaniyati asiriga aylangan insoniyat uchun ma‘naviy najot dasturi bo‘lib xizmat qiladi. Jamiyatni isloh qilish — bozorlarni tartibga solishdan emas, balki inson qalbini ma‘rifat nuri bilan qayta qurishdan boshlanishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xurshid Do‘stmuhammad. Bozor. – Toshkent: Sharq, 2000.
2. Xurshid Do‘stmuhammad. Jajman.– Toshkent: Akademnashr, 2018.
3. Shayx Muhammad Sodik f Muhammad Yusuf.Bozor.–Hilol-Nashr nashriyot-matbaasi.
4. Fotix Duman.Men.Bas qil,ey nafs. – Nasim Kutub. 2022.
5. Boqijon To‘xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova.Adabiyot darslik.
6. Toshkent:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.2017.